



bugun tashqarida

O'simliklar qanday bo'ladi?



Atrofimizni turli xil o'simliklar o'rab turadi. Bular – daraxtlar, butalar va o'tlar.



O'simliklar jonli tabiatga kiradi. O'simliklar o'sib rivojlanishi uchun ularga suv, havo, yorug'lik va issiqlik kerak. Uyimiz yonida tomorqa bor. Men u yerdagi o'simliklarni parvarish qilishni yaxshi ko'raman. Tomorqada madaniy o'simliklar yetishtiriladi.



Tomorqada qanday o'simliklar o'sadi?





o'simliklar

yovvoyi



momaqaymoq



zubtutum


madaniy



karam



piyoz



Bu o'simliklarning qaysi qismini iste'mol qilamiz?



Mahallamizda **mevali bog'** bor. U yerda mazali mevali daraxtlar o'sadi. Mahallamiz aholisi bog'da sayr qilishni, mevalar terishni, tabiat go'zalligidan bahramand bo'lishni yaxshi ko'radi.



Bog'da qanday o'simliklar o'sadi?




Xonaki o'simliklar biz uyda yoki xonada o'stirib parvarish qiladigan o'simliklardir. Ular havoni tozalashga, xonani chiroyli va ko'rkam qilishga yordam beradi.

O'simliklar o'sishi uchun ularga yetarlicha **yorug'lik**, **suv** va **parvarish** kerak.



Sinfingizda va uyingizda qanday o'simliklar o'sishini belgilang.



orxideya



kaktus




kapalakgul



aloe




binafsha



dekabrist



monstera



yorongul

